



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UO‘K: 616.9:616.995(575.172)

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA ICHAK PARAZITOTLARI BILAN KASALLANISH KO‘RSATKICHLARINING RETROSPEKTIV TAHLILI



Anvarov Jaxongir Abralovich

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari
kafedrası dotsenti, PhD, Toshkent sh., O‘zbekiston

E-mail: anvarovjahongir82@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0003-1080-3651>

Tel: +998 94 626 90 63



Dauletnazarova Guldana Reypnazarovna

Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti, Tibbiy biologiya va mikrobiologiya kafedrası
assistenti, Nukus shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

E-mail: guldana.0884@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0000-4936-0769>

Tel: +998 91 395 82 84



Karimova Mavluda Turabdjianovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari
kafedrası dotsenti, t.f.n., Toshkent sh., O‘zbekiston

Email: karimova@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0005-9441-0194>

Tel: +998 94 619 45 35

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2015–2024 yillar davomida ichak parazitotlari bilan kasallanish ko‘rsatkichlarini retrospektiv tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tahlil natijalariga ko‘ra, enterobioz bo‘yicha 2015–2019 yillarda barqaror o‘shish kuzatilib, 2019 yilda eng yuqori darajaga yetgan, 2020 yilda esa keskin pasayish qayd etilgan. Gimenolepidoz bilan kasallanishda 2020 yilgacha pasayish, keyingi yillarda esa bosqichma-bosqich o‘shish aniqlangan. Askaridoz va teniarinxoz bo‘yicha kasallanish ko‘rsatkichlari nisbatan past darajada bo‘lib, yillar kesimida qisman ko‘railish va pasayish bilan kechgan. Sanab o‘tilgan parazitotlar bilan kasallanish 2020 yilda kuzatilgan pasayish COVID-19 pandemiyasi davrida tibbiy xizmatlarga murojaatning kamayishi va profilaktik tekshiruvlar hajmining qisqarishi bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi ekologik va sanitariya-gigiena omillari, xususan Orolbo‘yi hududidagi noqulay sharoitlar, parazitlar kasalliklar saqlanib qolishiga ta‘sir ko‘rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, enterobioz, askaridoz, gimenolepidoz, teniarinxoz, kasallanish.



РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ КИШЕЧНЫМИ ПАРАЗИТОЗАМИ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН

Анваров Ж.А.¹, Даулетназарова Г.Р.², Каримова М.Т.¹

¹Ташкентский государственный медицинский университет, г. Ташкент,
Республика Узбекистан,

²Медицинский институт Каракалпакстана, г. Нукус, Республика Каракалпакстан

Аннотация. Данное исследование посвящено ретроспективному анализу показателей заболеваемости кишечными паразитами в Республике Каракалпакстан за 2015–2024 годы. Установлено, что по энтеробиозу в 2015–2019 гг. наблюдалась устойчивая тенденция роста с достижением максимума в 2019 году, после чего в 2020 году отмечено резкое снижение. Для гименолепидоза характерно снижение до 2020 года с последующим постепенным ростом. Заболеваемость аскаридозом и тениаринхозом оставалась на относительно низком уровне с незначительными колебаниями. Резкое снижение показателей в 2020 году может быть связано с пандемией COVID-19, сопровождавшейся снижением обращаемости населения за медицинской помощью и сокращением профилактических обследований. В то же время экологические факторы региона, включая неблагоприятную ситуацию в Приаралье, качество питьевой воды и санитарно-гигиенические условия, могут способствовать сохранению паразитозов.

Ключевые слова: Республика Каракалпакстан, энтеробиоз, аскаридоз, гименолепидоз, тениаринхоз, заболеваемость.

RETROSPECTIVE ANALYSIS OF THE INCIDENCE OF INTESTINAL PARASITIC DISEASES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

Anvarov Jakhongir A.¹, Dauletnazarova Guldana R.², Karimova Mavluda T.¹

¹Tashkent State Medical University, Tashkent, Republic of Uzbekistan,

²Karakalpakstan Medical Institute, Nukus, Republic of Karakalpakstan

Annotation. This study presents a retrospective analysis of intestinal parasitic infection rates in the Republic of Karakalpakstan from 2015 to 2024. The findings



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

indicate a steady increase in enterobiasis incidence from 2015 to 2019, reaching a peak in 2019, followed by a sharp decline in 2020. Hymenolepiasis showed a decreasing trend until 2020, with a gradual increase in subsequent years. The incidence of ascariasis and taeniasis remained relatively low, with minor fluctuations over the study period. The marked decline in 2020 may be associated with the COVID-19 pandemic, which led to reduced healthcare utilization and decreased coverage of preventive examinations. Additionally, environmental factors in the region, particularly the unfavorable conditions of the Aral Sea area, including poor water quality and sanitation, may contribute to the persistence of parasitic diseases.

Keywords: Republic of Karakalpakstan, enterobiasis, ascariasis, hymenolepiasis, taeniasis, incidence.

Ichak parazitozlari dunyo miqyosida keng tarqalgan infeksiyon kasalliklar qatoriga kiradi va ular aholi salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. World Health Organization ma'lumotlariga ko'ra, gelmintozlar va protozoy infeksiyalar bilan dunyo bo'ylab milliardlab insonlar zararlangan bo'lib, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda ularning tarqalishi yuqori darajada saqlanib qolmoqda [1].

Ichak parazitozlari bolalar va kattalar orasida nutritiv holatning yomonlashishi, anemiya, immunitet pasayishi hamda mehnat qobiliyatining kamayishiga olib keladi. Bu kasalliklar, shuningdek, boshqa infeksiyalar bilan birgalikda kechishi natijasida kasallik og'irligini oshirishi mumkin. CDC ma'lumotlariga ko'ra, parazitlar infeksiyalar ayniqsa sanitariya-gigiena sharoitlari yetarli darajada bo'lmagan hududlarda yuqori tarqalish xususiyatiga ega [2, 3].

Markaziy Osiyo, jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasida iqlimiy, ekologik va ijtimoiy omillar (ichimlik suvi sifati, sanitariya holati, aholi turmush tarzi) ichak parazitozlarining tarqalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Orolbo'yi hududlarida ekologik inqiroz oqibatlarini aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, parazitlar kasalliklarning saqlanib qolishiga sharoit yaratadi [4].

Shu bilan birga, kasallanish ko'rsatkichlarining vaqt bo'yicha o'zgarishini chuqur tahlil qilish, epidemiologik tendensiyalarni aniqlash va xavf omillarini baholash profilaktik choratadbirlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Retrospektiv tahlil usuli esa uzoq yillik ma'lumotlar asosida kasallik dinamikasini baholash imkonini berib, hududiy epidemiologik vaziyatni kompleks o'rganishga xizmat qiladi [5].

Shu munosabat bilan Qoraqalpog'iston Respublikasida ichak parazitozlari bilan kasallanish dinamikasining retrospektiv tahlilini o'tkazish zamonaviy tibbiyot va epidemiologiyaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Oxirgi 10 yil ichida Qoraqalpog'iston Respublikasida ayrim ichak parazitozlari (enterobioz, gimenolepidoz, askaridoz, teniarinxoz) bilan kasallanish dinamikasini retrospektiv tahlil qilish.



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Tadqiqot materiallari va usullar. Tadqiqot ishi 2025–2026 yillar davomida o'tkazildi. Tadqiqot Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasida amalga oshirildi. Tadqiqotda Qoraqalpog'iston Respublikasi SEO va JSBning 2015–2024 yillar davomida aholi o'rtasida qayd etilgan ichak parazitozlari bilan kasallanish bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqot ishi retrospektiv, tavsifiy-analitik xarakterga ega bo'lib, 10 yillik dinamik qatorlar tahlil qilindi. Kasallanish ko'rsatkichlari intensiv (100000 aholiga nisbatan) va absolyut ko'rsatkichlar asosida baholandi. Olingan ma'lumotlar statistik qayta ishlandi: o'rtacha qiymat (M), standart og'ish ($\pm\sigma$) va ishonch intervallari hisoblandi. Dinamika tahlilida qiyosiy va trend tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha enterobioz bilan kasallanish dinamikasi 2015–2024 yillar kesimida tahlil qilinganda, ko'rsatkichlar yillar davomida sezilarli darajada o'zgarib borгани aniqlanadi. Absolyut ko'rsatkichlar bo'yicha 2015 yilda 4912 ta holat qayd etilgan bo'lib, intensiv ko'rsatkich 278,5 ni tashkil etgan. 2016 yilda kasallanish oshib, 5655 ta holat (318,2) qayd etilgan. 2017 yilda o'sish tendensiyasi davom etib, 6373 ta holatga yetgan (350,6). 2018 yilda kasallanish yana ortib, 6673 ta holat (362,1) qayd etilgan bo'lsa, 2019 yilda eng yuqori ko'rsatkich kuzatilib, 7232 ta holat (386,8) ni tashkil etgan. 2020 yilda keskin pasayish qayd etilib, 1927 ta holatga tushgan (101,5). 2021 yilda esa kasallanish yana oshgan bo'lib, 4936 ta holat (258,2) qayd etilgan. Keyingi yillarda nisbiy pasayish kuzatiladi: 2022 yilda 3940 ta holat (204,8), 2023 yilda esa yana biroz o'sib, 4810 ta holat (245,1) qayd etilgan. 2024 yilda absolyut ko'rsatkich yana sezilarli darajada oshib, 7325 ta holatni tashkil etgan (391,7) (1-rasm).


Gimenolepidoz bilan kasallanish dinamikasi 2015–2024 yillar kesimida tahlil qilinganda, ko'rsatkichlarning yillar davomida o'zgaruvchan xarakterga ega ekanligi aniqlandi. 2015 yilda absolyut ko'rsatkichda 1905 ta holat qayd etilgan bo'lib, intensiv ko'rsatkich 108,0 ni tashkil etgan. 2016 yilda kasallanish biroz pasayib, 1825 ta holat (102,0) qayd etilgan. 2017 yilda yana esa o'sish kuzatilib, 2219 ta holatga yetgan va bu intensiv ko'rsatkichda 122,1 ni tashkil etgan. 2018 yilda kasallanish biroz kamayib, 2030 ta holat (110,0) qayd etilgan. 2019 yilda esa pasayish tendensiyasi davom etib, 1455 ta holat (77,8) ni tashkil etgan. 2020 yilda ushbu pasayish yanada kuchayib, 1051 ta holat (55,3) qayd etilgan va bu tahlil qilingan davrdagi eng past ko'rsatkich hisoblanadi. 2021 yilda kasallanish yana oshgan bo'lib, 1609 ta holat (84,1) qayd etilgan. Keyingi yillarda o'sish tendensiyasi davom etgan: 2022 yilda 2005 ta holat (104,2), 2023 yilda 2153 ta holat (109,7) qayd etilgan. 2024 yilda esa kasallanish yana ortib, 2374 ta holatni tashkil etgan (118,5) (1-rasm).



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida enterobioz va gimenolepidoz bilan kasallanish dinamikasi, 2015–2024 yillar (100 ming aholiga nisbatan intensiv ko'rsatkich).

2015–2024 yillarda askaridoz bilan kasallanish dinamikasi tahlil qilinganida, tadqiqot natijalariga ko'ra, kasallanish ko'rsatkichlari yillar davomida o'zgaruvchan xarakterga ega ekanligi aniqlandi. Absolyut ko'rsatkichda 2015 yilda 13 ta holat qayd etilgan bo'lib, intensiv ko'rsatkich 0,7 ni tashkil etgan. 2016 yilda kasallanish 20 ta holatgacha oshgan (intensiv ko'rsatkich — 1,1). 2017 yilda o'sish davom etib, abs. ko'r. 46 ta holat qayd etilgan (2,5), 2018 yilda esa 64 ta holatga yetgan (3,4), bu davrda eng yuqori ko'rsatkichlardan biri kuzatilgan. 2019 yilda kasallanish biroz pasayib, 37 ta holatni (1,9) tashkil etgan. Keyingi yillarda kasallanish ko'rsatkichlari nisbatan barqarorlashgan: 2020 yilda 24 ta holat (1,2), 2021 yilda 20 ta holat (1,0), 2022 yilda 24 ta holat (1,2), 2023 yilda 17 ta holat (0,8) qayd etilgan. 2024 yilda esa kasallanish holatlari qayd etilmagan (2-rasm).


2015–2024 yillarda teniarinxoz bilan kasallanish dinamikasi tahlil qilinganida, kasallanish ko'rsatkichlarining yillar kesimida o'zgaruvchan xarakterga ega ekanligi aniqlandi. Absolyut ko'rsatkichda 2015 yilda 48 ta holat qayd etilgan bo'lib, intensiv ko'rsatkich 2,7 ni tashkil etgan. 2016 yilda kasallanish biroz oshib, 53 ta holat (2,9) qayd etilgan. 2017 yilda o'sish tendensiyasi davom etib, 72 ta holatga yetgan va bu tahlil qilingan davrdagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri bo'lgan (3,9). 2018 yilda kasallanish 57 ta holatgacha kamaygan (3,09), 2019 yilda esa pasayish davom etib, 49 ta holatni (2,6) tashkil etgan. 2020 yilda ushbu tendensiya saqlanib, 36 ta holat (1,8) qayd etilgan. 2021 yilda kasallanish yana oshgan bo'lib, 64 ta holatga yetgan (3,3). Keyingi yillarda esa pasayish kuzatilgan: 2022 yilda 37 ta holat (1,9), 2023 yilda ham shunga yaqin darajada saqlanib, 37 ta holat (1,8) qayd etilgan. 2024 yilda kasallanish ko'rsatkichi yana pasayib, 23 ta holatni tashkil etgan (1,15) (2-rasm).



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740



2-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida askaridoz va teniarinxoz bilan kasallanish dinamikasi, 2015–2024 yillar (100 ming aholiga nisbatan intensiv ko'rsatkich).

Muhokama. Olib borilgan tadqiqot natijalari Qoraqalpog'iston Respublikasida ichak parazitozlari bilan kasallanish dinamikasida muhim epidemiologik o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatdi. Enterobioz va gimenolepidoz bo'yicha 2015–2019 yillarda kuzatilgan o'sish tendensiyasi parazitlar infeksiyalar aholi orasida saqlanib qolayotganligini ko'rsatadi. Bu holat sanitariya-gigiena sharoitlari yohud shaxsiy gigienaga rioya qilish darajasi yetarli samarador emasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin [6].

2020 yilda barcha tahlil qilingan parazitozlar bo'yicha kasallanish ko'rsatkichlarining pasayishi qayd etildi. Bu holat COVID-19 pandemiyasi davrida tibbiy murojaatlar sonining kamayishi, profilaktik ko'riklarning cheklanishi va epidemiologik nazoratning vaqtinchalik pasayishi bilan izohlanadi. Ushbu tendensiya World Health Organization ma'lumotlarida ham qayd etilgan [7].

2021–2024 yillarda esa aksincha, kasallanish ko'rsatkichlarining qayta o'sishi kuzatildi. Bu holat tibbiy xizmatlar faoliyatining tiklanishi, aholi murojaatlarining oshishi va laborator diagnostika imkoniyatlarining kengayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Centers for Disease Control and Prevention ma'lumotlariga ko'ra, parazitlar kasalliklarni aniqlash darajasi diagnostika va skrining ishlari faolligiga bevosita bog'liq [8].

Askaridoz bo'yicha olingan natijalar ham kasallanishning o'zgaruvchan dinamikasini ko'rsatib, bu infeksiyaning asosan sanitariya sharoitlari va tuproq orqali yuqishi bilan bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa bolalar o'rtasida yuqori uchrashi World Health Organization ma'lumotlari bilan mos keladi. Bu esa maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi [4].

Teniarinxoz bo'yicha tahlil natijalari kasallanish dinamikasining oziq-ovqat omillari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Xususan, go'sht mahsulotlarini iste'mol qilish madaniyati, veterinariya



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

nazorati darajasi va oziq-ovqat xavfsizligi ushbu infeksiya tarqalishida muhim ahamiyatga ega. Bu holat Food and Agriculture Organization ma'lumotlari bilan ham tasdiqlanadi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ekologik omillar — xususan Orolbo'yi hududidagi noqulay ekologik vaziyat, ichimlik suvi sifati va sanitariya sharoitlari parazitlar saqlanib qolishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu haqda World Bank tadqiqotlarida ham qayd etilgan [9].

Xulosa. Qoraqalpog'iston Respublikasida 2015–2024 yillar davomida ichak parazitlari bilan kasallanish ko'rsatkichlari tahlili ularning yillar kesimida o'zgaruvchan va nobarqaror xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. Enterobioz bo'yicha 2015–2019 yillarda barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilib, 2019 yilda eng yuqori darajaga yetgan, 2020 yilda esa keskin pasayish qayd etilgan. Keyingi yillarda ko'rsatkichlar yana o'sishga moyil bo'lib, 2024 yilda yuqori darajaga qayta chiqqan. Gimenoletidozda 2015–2020 yillarda pasayish tendensiyasi ustun bo'lib, 2020 yilda eng past ko'rsatkich qayd etilgan, 2021–2024 yillarda esa bosqichma-bosqich o'sish kuzatilgan. Askaridoz bilan kasallanish ko'rsatkichlari past darajada saqlanib, 2018 yilgacha o'sish, keyingi yillarda esa nisbatan barqarorlashish va pasayish tendensiyasi kuzatilgan, 2024 yilda holatlar qayd etilmagan. Teniarinxoz bo'yicha esa ko'rsatkichlar past darajada bo'lib, yillar davomida tebranishlar bilan kechgan va umumiy pasayish tendensiyasi aniqlangan. 2020 yilda qayd etilgan keskin pasayish COVID-19 pandemiyasi davrida tibbiy xizmatlarga murojaatning cheklanishi, profilaktik tekshiruvlar hajmining kamayishi hamda aholining ijtimoiy faolligi pasayishi bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur holat kasallanishning haqiqiy kamayishidan ko'ra, aniqlanish darajasining pasayishi bilan bog'liq bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Health Organization. Soil-transmitted helminth infections. Geneva: WHO; 2020.
2. Centers for Disease Control and Prevention. Parasites – Epidemiology & Risk Factors. Atlanta: CDC; 2022,
3. Akhmedova M.D., Anvarov J.A., Suvonkulov U.T., Mirzajonova D.B., Osipova S.O. Cutaneous leishmaniasis and related tissue helminthiasis (review). Journal Infectology. 2019;11(2):20-25. (In Russ.) <https://doi.org/10.22625/2072-6732-2019-11-2-20-25>
4. Garcia LS. Diagnostic Medical Parasitology. 6th ed. Washington DC: ASM Press; 2016
5. Markell and Voge's Medical Parasitology. 10th ed. Elsevier; 2013.
6. Cook G. C. (1994). Enterobius vermicularis infection. Gut, 35(9), 1159–1162. <https://doi.org/10.1136/gut.35.9.1159>
7. Butala CB, Cave RNR, Fyfe J, Coleman PG, Yang GJ, Welburn SC. Impact of COVID-19 on the neglected tropical diseases: a scoping review. Infect Dis Poverty. 2024 Jul 29;13(1):55. <https://doi.org/10.1186/s40249-024-01223-2>. PMID: 39075616; PMCID: PMC11285209.
8. Centers for Disease Control and Prevention. Parasites – Epidemiology & Risk Factors. 2022.
9. World Bank. The Aral Sea Basin: Water, Environmental and Social Challenges. Washington, DC: World Bank; 2019.